

EFFECTIVE USE OF THE MEDICINAL PROPERTIES OF POMEGRANATE IN SCIENTIFIC MEDICINE AND ANALYSIS OF CHEMICAL AND BIOLOGICAL COMPOSITION

Jalolova Ogilbiy Abduqodirovna

Kuva vocational school of Fergana region

chemistry teacher

vohobovaugiloy@gmail.com

Annotation: It is no secret that in the process of globalization, significant changes are taking place in every field. If we look at science, industry and all other areas, radical changes are taking place. In particular, a lot of work is being done to study and analyze the plants in our country, their growth, reproduction and use in natural conditions, and most importantly, their chemical composition. In addition to my professional activities, I also try to find and analyze additional information on science in order to increase my scientific potential. In this study, in addition to the chemical composition of pomegranate, attempts were made to collect information about its medicinal properties, botanical characteristics, biological properties, economic importance, agricultural techniques.

Keywords: Pomegranate, Pomegranates, Chemistry, Nectar, Classification, Antioxidant, Substances, Organic Acids, Vegetation Period

ANORNI SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARIDAN ILMIY TABOBATDA UNUMLI FOYDALANISH HAMDA KIMYOVIY VA BIOLOGIK TARKIBINING TAHLILI

Jalolova O`g`ilbiy Abduqodirovna

Farg`ona viloyati Quva kasb-hunar maktabi

kimyo fani o`qituvchisi

vohobovaugiloy@gmail.com

Annotatsiya: Globallashuv jarayonidagi hozirgi kunda har bir sohada muhim o`zgarishlarning bo`layotgani barchamizga sir emas. Ilm-fan, ishlab chiqarish va boshqa barcha sohalarini ko`rib chiqadigan bo`lsak, tub burilishlar yasalmogda. Shu jumladan, yurtimizdagi o`simliklar, ularni tabiiy sharoitda o`sishi, ko`payishi va qo`llanishi, eng asosiysi kimyoviy tarkibini o`rganish va tahlil qilish bo`yicha ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Men ham kasbiy faoliyatimdan tashqari, ilmiy salohiyatimni oshirish maqsadida, fan bo`yicha qo`shimcha ma`lumotlarni topishga va tahlil qilishga harakat qilaman. Ushbu ishda anorning kimyoviy tarkibidan tashqari uning shifobaxsh xususiyatlari, botanik tavsifi, biologik xususiyatlari, xo`jalikdagi ahamiyati, agrotexnikasi haqida ham ma`lumotlar to`plashga harakat qilindi.

Kalit so`zlar: anor, anordoshlar, kimyo, nashtarsimon, sinflash, antioksidant modda, organik kislotalar, vegetatsiya davri.

Аннотация: Не секрет, что в процессе глобализации существенные изменения происходят во всех сферах. Если мы посмотрим на науку, промышленность и все другие области, то здесь происходят радикальные изменения. В частности, проводится большая работа по изучению и анализу растений в нашей стране, их роста, размножения и использования в естественных условиях, а главное, их химического состава. Помимо профессиональной деятельности, я стараюсь находить и анализировать дополнительную информацию о науке, чтобы повысить свой научный потенциал. В этом исследовании, помимо химического состава граната, были предприняты попытки собрать информацию о его лечебных свойствах, ботанических характеристиках, биологических свойствах, экономическом значении, методах ведения сельского хозяйства.

Ключевые слова: гранат, гранаты, химия, нектар, классификация, антиоксидантные, вещества, органические кислоты, вегетационный период.

Kimyo fani butun olamni, uning nihoyatda xilma xil shakllarini va olamdagi sodir bo'ladigan har xil hodisalarni o'rganuvchi tabiiy fanlar qatoriga kiradi. Butun olam inson ongidan tashqarida va uning ongiga bog'liq bo'lmagan holda obyektiv ravishda mavjud. Olamdagi barcha mavjudot doimo harakat qilib turadigan borliqning har xil turlaridir. Bu turlar o'zaro ta'sirlashib boshqa turlarga aylanishi mumkin.

O'zbekistonda Fanlar Akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo instituti, Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti, Bioorganik kimyo instituti, O'simlik moddalar kimyosi instituti hamda bir qator ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida, oliy o'quv yurtlarining kimyo fakultetlari va kafedralarida kimyo sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ahmedov K.S., Parpiyev N.A., Solihov Sh.I., Yusupbekov N.R., Asqarov M.A., Ne'matov S.N., Abdurahobov A.A., Salimov Z.S., Rashidova S.Sh., Obidova M.O., Mirkomilov T.M., Beglov, Iskandarov S.I., Rustamov X.R., To'xtayev, Toshpo'latov Yu., Tolipov Sh.T., Aslanov H.A., Abdurasulova R.A., Maxsumov A.G., Shohidoyatov X.M., Tillayev K.S., Musayev O.N., Yusupov D.Yu., Sirliboev T.S., Yo'lchiboyev A.A., Muftaxov A.G., Ahmerov Q.A., Hakimov G.H. va boshqa taniqli o'zbek kimyogar olimlarining olib borgan va bugungi kunda amalga oshirayotgan ilmiy tadqiqotlarining natijalari O'zbekistonda kimyo fani va sanoatining rivojlanishida va jahonga tanilishida muhim ahamiyatga egadir.

Shularni o'rganish, ko'rib chiqish natijasida, anorning kimyoviy tarkibidan tashqari, uning shifobaxsh xususiyatlari, botanik tavsifi, biologik xususiyatlari, xo'jalikdagi ahamiyati, agrotexnikasi haqida ham ma'lumotlar to'plashga harakat qilindi.

Anor (*Punica granatum L.*)-Anordoshlar (Anorgullilar oilasi)ga mansub, subtropik meva o'simligi; bo'yi 2-10m daraxt yoki buta. Vatani O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Afg'oniston; yovvoyi turlari O'rta dengiz atrofi, O'rta Osiyoning jan.da, Qrim, Kavkaz, Eron, Afg'oniston, Old Osiyo va Dog'istonda uchraydi. O'zbekistonda Quva, Namangan, Denov va Kitob (Varg'anza) tumanlari a'lo sifatli anorlari bilan mashhur.

Botanik tavsifi. Barglari mayda, nashtarsimon, shoxlari tikanli (shirin mevalisida tikani kamroq). Iyun-iyulda gullaydi. Gullari ikki jinsli, yirik (diametri 8 sm gacha), och kizil, shoxi uchida bitta, ikkita, ba'zan beshtagacha joylashadi. Urug'chisi (onaligi) normal rivojlangan, ko'zchasimon guli meva tugadi, urug'chisi qisqa, qo'ng'iroqsimon gullari odatda meva tugmaydi. Anor chetdan changlanadi. Mevasi yirik, dumaloq, qizg'ish (qizil po'st) yoki oqish (oq po'st) bo'lib, og'irligi 250-1000 g keladi. Mevasi 6-12 uya (xona) li, doni och pushti yoki to'q qizil. Ta'mi shirin, chuchuk-nordon va nordon, sersharbat (40-60% hattoki, anor mevasi tarkibida 80 % gacha suv), 14-21% qand, 0,3-9% limon kislota, 19% askorbin kislota, sof holda organik kislotalar - olma, shovil kislotalari, tanin, vitamin V, S bor. Pusti 29-50%, doni 10-20% ni tashkil etadi. Mevasi, po'sti, ildiz po'stlog'ida 28% gacha oshlovchi moddalar bor. B guruh vitaminlari - B₁, B₂, B₆, B₉ va karotin, A vitamini shuningdek kaliy, magniy, kobalt, temir, kalsiy, fosfor kabi mineral moddalar mavjud.

Shifobaxshlik xususiyatlari. Anor qonni ko'paytiradi, tarkibida antioksidant moddalar borligi uchun organizmni yoshartirish xususiyatiga ega. Bundan tashqari Anor mevasining po'slog'i, daraxtning gullari, barglari va ildizidan tayyorlangan dori maxsulotlari quyidagi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi: Nafas yo'llari kasalliklarida, teri toshmalarini davolashda, qon bosimini tushurishda, gormonlar faolligini oshirishda, ich ketishini to'xtatadi, yo'talga qarshi shifo bo'ladi, yo'g'onichak yallig'lanishida, ko'ngil aynishini qoldiradi, qon ketishini oldini oladi, gijjalarni yo'qotadi, milk qonaganda qonni to'xtatadi, peshob haydaydi, kamqonlikni davolashda foydalanilib, saratonning oldini oladi.

Xo'jalikdagi ahamiyati. Anor asosan, meva sifatida iste'mol etiladi. Anordan qandolat va tibbiyotda keng foydalaniladi, teri oshlashda va gazlamalarni bo'yashda ishlatiladi. Gulbargi va meva po'stidan bo'yoq, donidan sharbat tayyorlanadi. Yovvoyisidan limon kislota olinadi. Yovvoyi anor qizil kitobga kiritilgan bo'lib, O'zbekistonda tabiiy holda juda kam saqlanib qolgan, areali bo'lingan relik tur bo'lib, bo'yi 2 metrga yetadigan buta hisoblanadi. Ba'zi turlari xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi.

Biologik xususiyatlari. Anor asosan, qalamchadan ko'paytiriladi. Unumdor qumoq, nami yetarli tuproqlarda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilikka chidamli, lekin namsevar. Yerning unumdorligiga qarab, ko'chat oralig'i 4x4 va 5x4, tomorqalarda 3x3 m qilib ekiladi. O'zbekiston sharoitida kech kuzda xashak, qamish bilan yopiladi yoki tuproqqa ko'milib, bahorda ochiladi. Vegetatsiya davri 180-215 kun. Yozdan kuzgacha gullaydi. Mevasi 120-160 kunda-sent.ning ikkinchi yarmida pishadi. -15°, -7° sovuqqa chidaydi, -20° da er

usti qismi (tanasi)ni sovuq urib ketadi. Anor 3-4 yoshdan meva tuga boshlaydi, 8-10 yoshdan to'liq hosilga kirib, 30-40 yil meva beradi. Hosildorligi 200 ts/ga gacha boradi.

Agrotexnikasi. Anor ko'chatlari ekilganidan keyin birinchi yildan boshlab 30-40 sm balandlikda 4-5 ta asosiy shox qoldirib past bo'yli daraxt ko'rinishida yoki 3-4 asosiy shox qoldirib butasimon shakl beriladi. Har yili qurigan, nimjon rivojlangan, eskirgan o'zak novdalar kesib turiladi. Vegetatsiya davrida 6-10 marta sugoriladi, qator oralari yumshatiladi, begona o'tlardan tozalanadi, oziqlantiriladi. Zararkunandalari - mevaxo'rlar, bitlar, kanalar; kasalligi – novdalar qorasoni. Navlari. Kollektsiyalarda anorning 69 navi hisobga olingan. Lekin O'zbekistonda ixtisoslashgan xo'jaliklarda asosan achchiqdona va qozoqi anor ko'p ekiladi, qay anor, qizil anor, oq dona, ulfi va boshqa navlari ham keng tarkalgan. Achchiqdona anor Jaydari nav. Mevasi 400-600 g. Mazasi nordon, sharbati qizil, tarkibida 15-16% qand bor. Po'sti qalin, 5 oygacha yaxshi saqlanadi. Tupi 30-35 kg hosil beradi. Farg'ona vodiysida keng tarqalgan. Qay anor Jaydari nav. Mevasi yirik (500-700 g). Nordon xushxo'r, sharbati qizg'ish. Tarkibida 19-20% qand bor. Po'stining qalinligi o'rtacha, martgacha saqlanadi. Tupi 35-40 kg hosil beradi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida bor. Qizil anor bu ham jaydari nav. Sharbati tarkibida qand 15-16%, po'sti yupqa, uzoq saqlashga chidamsiz. Qozoqi anor xalq selektsiyasi yo'li bilan yetishtirilgan. Mevasi 250-300 g, ayrimlari 600- 700 g. Mazasi nordonshirin, sharbati kizil. Tarkibida 18-19% qand bor. Po'sti qalin, 6 oygacha saqlanadi. Tupi 50-60 kg hosil beradi. Toshkent, Andijon, Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan. Oq dona (shirin anor) anor Jaydari nav. Mevasi 250-350 g, ayrimlari 500-600 g. Mazasi shirin. Sharbati pushti, tarkibida 19-21% qand bor. Po'sti yupqa yoki o'rtacha qalinlikda, qizg'ish-pushti, Ba'zisi oq, 2-3 oy saqlanadi. Tupi 25-30 kg hosil beradi. O'zbekistonning ko'pchilik viloyatlarida o'stiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, anor va unga xos ma'lumotlarni ilmiy yondoshgan holda yig'ish orqali, uning tabobatda qanchalik o'rni bor ekanini aniqlash bilan bir qatorda, xo'jalikdagi va biologik ahamiyatini o'rganish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Asqarov, Sh. H. Abdullayev, O. Sh. Abdullayev, Kimyo Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar va iqtidorli talabalar uchun o'quv qo'llanma (tuzatilgan, to'ldirilgan 3-nashr) T.; 2016-yil.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasining Mahmud Mirzaev, Rixsivoy Jo'raev tayyorlagan ma'lumotlari. Davlat ilmiy nashryoti, Toshkent.; 2006-yil.
3. Salomatlik olami-http://t.me/salomatlikolami_and_July_03, 2020 Hidoyat.uz